

## INOMJON RASULOVNING ORFOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASIGA DOIR QARASHLARI

Mahmudova Dilafruz Salijanovna

*Qo‘qon davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Orfografiya yozma nutqning tartibini, yozuvdagi yagona standartni ta’minlovchi til sohasidir. Yozuvning asosiy vazifasi fikrni aniq, ravshan, tushunarli yetkazish ekan, bu jarayonda orfografik qoidalar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Savodli yozish, bir tomondan, tilni bilish bilan, ikkinchi tomondan, qoidalarga ongli ravishda rioya etish bilan bog‘liqdir.

**Kalit so‘zlar:** Orfografiya, metodika, qoida, mashq, tamoyil, prinsip, savodxonlik.

**Abstract.** Orthography is a branch of language that provides the order of written speech, a single standard in writing. Since the main task of writing is to convey a thought clearly, clearly, and intelligibly, orthographic rules play a decisive role in this process. Literate writing is associated, on the one hand, with knowledge of the language, and on the other hand, with conscious adherence to the rules.

**Keywords:** Orthography, methodology, rule, exercise, principle, principle, literacy.

**Аннотация.** Орфография — это раздел языка, который устанавливает порядок письменной речи, единый стандарт в письме. Поскольку главная задача письма — ясно, четко и понятно передать мысль, орфографические правила играют решающую роль в этом процессе. Грамотное письмо связано, с одной стороны, со знанием языка, а с другой — с сознательным соблюдением правил.

**Ключевые слова:** Орфография, методология, правило, упражнение, принцип, принцип, грамотность.

Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida sohaga qisqacha quyidagicha ta’rif beriladi: “ORFOGRAFIYA (yun. orthos to‘g‘ri+grapho - yozaman) Imlo”.<sup>19</sup>

Y.G‘ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar hammuallifligida yozilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” asarining<sup>20</sup> “Orfografiya o‘qitish metodikasi” nomli qismi Inomjon Rasulov tomonidan yaratilgan. Mazkur qismni ham mazmunan ikkiga guruhlash mumkin. Birinchisi, orfografiyani o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan mavzular, ikkinchisi, orfografik savodxonlikni oshirishga qaratilgan bo‘lim. Birinchi qism mazmunan ixcham bo‘lsa-da, o‘zbek tili ta’limi, xususan, imlo o‘rgatish jarayoniga oid dolzarb masalalarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Asar kirish qismidanoq orfografiya tushunchasiga zamonaviy yondashuv asosida izoh beriladi va u o‘zbek adabiy tilining muhim komponenti sifatida talqin qilinadi. Muallifning fikricha, orfografiya nafaqat harflarni to‘g‘ri yozish qoidalari majmuasi, balki adabiy til me‘yorlariga sodiqlikni ta’minlovchi asosiy omillardan

<sup>19</sup> Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 77.

<sup>20</sup> Гуломов Е., Расулов И., Рустамов Х., Мирзаахмедов Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси: Университетларнинг филология факультетлари ҳамда педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.

biridir.<sup>21</sup> Bu qarash, aslida, orfografiyani faqat texnik ko‘nikma emas, balki madaniy va estetik qadriyat sifatida qabul qilishga chorlaydi. Risolada ta’lim jarayonida orfografiyani o‘rgatish metodikasi alohida e’tibor bilan yoritiladi. Muallif, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida imlo o‘rgatishga bosqichma-bosqich yondashish zarurligiga urg‘u beradi. Unga ko‘ra, o‘quvchilarda dastlab fonetik va grafemik bilimlar shakllantirilishi, undan keyin esa murakkab orfografik birliklarni egallashga o‘tilishi kerak. Bu uslubiy tavsiya, aslida, bugungi til o‘rgatish jarayonida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Inomjon Rasulov orfografiya o‘qitish metodikasini boshqa til bo‘limlari singari, uzluksiz va tizimli ish olib borishni talab etadigan murakkab o‘quv jarayon sifatida e’tirof etadi. Uning ta’kidlashicha, o‘quvchilarda mustahkam orfografik malaka hosil qilish uchun nafaqat qoidalarni ongli o‘zlashtirish, balki bu bilimlarni amaliyotda mustahkamlash, ko‘nikmaga aylantirish ham juda muhim.

I.Rasulovning ta’kidlashicha, har bir sinfda o‘quvchilar uchun aniq belgilangan orfografik minimum belgilab olinishi zarur. Bu minimum qaysi so‘zlar qaysi sinfda yodlashga mo‘ljallangani, qaysi xatolar qaysi sinfda yo‘l qo‘yilishi mumkin emasligi, xatolarni baholash mezonlarini aniq ko‘rsatib beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mas’uliyatini oshiradi, lug‘at zaxirasini boyitadi va savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Inomjon Rasulov “orfografik minimum” tushunchasini nazariy yondashuvdan amaliy yondashuvga ko‘chirib, sinflar bo‘yicha qiyin so‘zlar ro‘yxatini tashkil etishni tavsiya qiladi. Unga ko‘ra 4-sinfda - 180 ta so‘z, 5-sinfda -170 ta, 6-sinfda – 150 ta, 7–8-sinflarda – 140 tadan so‘z imlo jihatdan puxta o‘zlashtirilishi kerak.<sup>22</sup> Bu so‘zlar orfografik qoidani yodlash orqali emas, balki lug‘at orqali muntazam mashq va tafakkur asosida o‘zlashtiriladi. Aytish va yozish farqli bo‘lgan so‘zlar imlo jihatidan muammoli bo‘lib, ularning yodda saqlanishi uchun ko‘p marotaba takror, ko‘plab misolli mashqlar talab etiladi.

Inomjon Rasulov asarida orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan asosiy metodik prinsiplarga alohida urg‘u beradi. Uning fikricha, o‘quvchilarda orfografik malaka quyidagi muhim tamoyillar asosida shakllanadi: ongli o‘qitish, umumiy rivojlanish bilan bog‘liq yondashuv, og‘zaki va yozma nutq mashg‘ulotlarining uyg‘unligi, mustaqil faoliyatga yo‘naltirish hamda usullararo uzviylikni ta’minlash orfografik malaka shakllanishida metodik usullarning uzviy bog‘liqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir metodik yondashuv o‘zaro bir-birini to‘ldirishi, tizimli va bosqichma-bosqichlilik tamoyiliga asoslanishi kerak. Bu jihat, ayniqsa, murakkab orfografik hodisalarni uzviylikda tushuntirish va amaliyot bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega. Muallif ta’kidlaganidek, orfografiya o‘qitishda faqat lingvistik bilimlarga yoki faqat psixologik yondashuvlarga tayanish yetarli emas. Orfografiyani samarali o‘qitish uchun bu ikki jihat uyg‘unlikda bo‘lishi, shuningdek o‘quvchining nutqiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda olib borilishi zarur. Mashq matnlarini tanlashda ham ularning leksik tarkibi va tematik muvofiqligi e’tiborga olinishi kerak. Chunki noto‘g‘ri tanlangan matn o‘quvchida orfografik malaka emas,

<sup>21</sup> Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 168

<sup>22</sup> Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 171

balki chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, mashqlarda beriladigan material o‘quvchilarning yoshi, tilni o‘zlashtirganlik darajasi va rivojlanish ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Inomjon Rasulov ilgari surgan bu prinsiplarda orfografiyani o‘qitish pedagogik maqsadlar bilan uyg‘unlashtiriladi, o‘quvchining tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Bu esa, til madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladigan chuqur va puxta metodik konsepsiyaning mavjudligini ko‘rsatadi.

Inomjon Rasulovning ushbu risolasi orfografiyani o‘qitishda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan, metodik jihatdan asosli, aniq va samarali tavsiyalar bilan boyitilgan muhim manba hisoblanadi. Garchi hajman kichik bo‘lsa-da, undagi har bir fikr zamirida uzoq yillik tajriba va chuqur tahlil yotgani sezilib turadi. Bu asar bugungi til ta’limi metodikasini ilmiy asosda boyitishga xizmat qiladigan muhim manbalardan biridir.

Inomjon Rasulov “Orfografiya o‘qitish metodlari” nomli bo‘limning yettinchi paragrafidagi o‘quv jarayonining o‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritadi.<sup>23</sup> Muallifga ko‘ra, orfografiyani puxta o‘zlashtirishda o‘qish mashqlari alohida o‘rin egallaydi. Chunki o‘qish orqali matnni idrok qilish yoki so‘zlar tuzilishini anglash orqali yozma nutqdagi xatoliklarning oldini olish mumkin. Biroq yozuv bilan og‘zaki so‘zlashuv, xususan, o‘qish jarayonidagi farqlar, muammoli jihatlarni yuzaga keltiradi. Ongli o‘qitish tamoyili shuni anglatadiki, orfografik bilimlar o‘quvchilarga tayyor qoidalar sifatida emas, balki tushunishga asoslangan mashg‘ulotlar tarzida yetkazilishi zarur. Bunda o‘quvchi yozuvdagi so‘z shaklini o‘zida mavjud bo‘lgan til tizimi va mantiqiy tahlil asosida anglab yetishi kerak. Bu yondashuv faqat yodlashga emas, balki tushunishga asoslanadi, bu esa bilimning mustahkamligi va faol qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

I.Rasulov shunday muhim farqqa urg‘u beradi. O‘qishda so‘zlar bog‘liqlikda, uzluksiz tarzda qabul qilinadi, bu jarayonda o‘quvchi so‘zlarni qismlarga (morfemalarga) ajratishga ehtiyoj sezmaydi. Lekin yozuvda so‘zlarning fonetik va grafik shakllari o‘rtasidagi tafovutlar sababli xatoliklar yuzaga keladi. Ayrim tovushlar yozuvda boshqacha harflar bilan ifodalanadi yoki tovush tushishi, almashishi natijasida noto‘g‘ri yozuvlar paydo bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham yozish ko‘nikmasini shakllantirishda o‘qituvchi o‘quvchini so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajrata bilishga, ularning morfologik tuzilishini tushunishga o‘rgatishi lozim.

Xulosa. Muallifning qarashlarida o‘qituvchining o‘rni va metodik mahorati alohida ta’kidlanadi. Orfografik xatolar ustida ishlash, ularni tahlil qilish va sababini aniqlash orqali o‘quvchilarda tafakkurni faollashtirish, tilga ongli yondashuvni shakllantirish zarurligi ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, orfografiyani o‘rgatishda qat’iy nazorat, muntazam mashq va yodlash bilan birga tahliliy metodlarning muvozanatli qo‘llanishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 77.

<sup>23</sup> Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 177

2.Ғуломов Е., Расулов И., Рустамов Ҳ., Мирзааҳмедов Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси: Университетларнинг филология факультетлари ҳамда педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.

3.Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 168